



## BADIIY ASAR TAHLILIDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYADAN FOYDALANISH

**G'afforova Durdona**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim

2-kurs 3-bt -21 guruhi talabasi

Gafforovadurdona@gmail.com

**Atamurotova Qunduzoy Abdug'aniyevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti

boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

atamurotovaqunduzoy@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda badiiy asar tahlili va o'quvchilarning badiiy asarni idrok etishdagi psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish kitobidagi badiiy asarlar o'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtiradi, ularning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga xizmat qiladi. Shunday ekan atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Bu esa o'z navbatida fan doirasida, ta'lim sohasida badiiylikka qiziqishni uyg'otadi.*

***Kalit so'zlar:** badiiy asar, badiiy asar tahlili, badiiylik, ongli fikr yuritish, hikoya, ertak, boshlang'ich ta'lim, ijodiy fikrlash.*

Barchamizga ma'lumki, O'zbekistonimizda mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilib kelinmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar, chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishi, ulg'ayishi, teran fikrlar yuritishi, o'z o'rniga ega bo'lishi har bir jabhada olayotgan tarbiyaning bugungi O'zbekiston kelajagi uchun voyaga yetishida imkoniyatlar eshigini keng miqyosda ochib bermoqda. Shunday ekan, bilimli va tarbiyali yoshlar yurtimizning kelajagidir. Bu borada Sharq donishmandlari aytganlaridek, Eng katta meros bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik esa-bu bilimsizlik -Shunday ekan, o'z ustimizda tinmay ishlashimiz kerak",-deb aytganlar Shavkat Mirziyoyev [1].



Ko'rib turganimizdek bilim, ta'lim va tarbiya barchasi yaxlit tizimdir. Bularni barchasini bola ona qornidan boshlab toki oila, mahalla-kuy, ilm maskani va shu jarayonda hayot saboqlari davomida barchasiga ega bo'lib boradi. Bu o'z navbatida yosh avlodning Vatanni sevis, oqil inson bo'lish, ota-onaga hurmat, keksalarni ulug'lash, jamiyat bilan hamnafas yashashga zamin hozirlaydi. Biz maktab dargohiga qadam qo'yar ekanmiz, ta'lim va tarbiyani birdek o'rganmog'imiz, eng samarali yo'lni tanlashimiz, yurtga munosib farzand bo'lish va yetuklik sari ilk qadamlarni tashlamog'imiz darkor. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar hayotida o'qituvchi, ot-ona va oilaning o'rni beqiyosdir. Chunki ular bolaga ilk tarbiyani berish bilan birga, ularning har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash, bu orqali sog'lom fikrlaydigan, dunyo hamjamiyatidagi namuna bo'la oladigan yoshlarni tarbiyalashda o'z hissalarini qo'shadilar. Bugungi kunda o'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishlari, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Buni biz boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan yangi dastur va darsliklarda ko'rib guvohi bo'lishimiz mumkin. Shunday ekan, har bir jarayon bolaning kitob o'qishi, unga oshno bo'lishi bilan bog'liq. Ichki olamimizni hech narsa kitobchalik benazir boyita olmaydi. Ruhiyatingizni hech narsa kitobchalik o'qish, o'rganish, mehnatchalik muvozanatga, to'g'ri yo'lga sola olmaydi. Kitob ham bilim manbai, ham o'zingizni ko'rish, taqqoslash, taqlid qilish, bahslashishda ma'lum darajada ko'zgu vazifasini o'taydi. Ayniqsa, Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng boshlang'ich sinflar uchun o'qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko'proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko'proq e'tibor berildi. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar hayot obrazlari orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subyektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy, amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarga badiiy asarni o'qitish, uni tahlil qilishni o'rgatish bilan ularning fikrlash doirasi kengayadi, har bir jarayonni to'g'ri mulohaza qilishga o'rgatadi. Shu asosda o'quvchi dunyoqarashi o'zgaradi. Badiiy asarlarni o'rganishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikda ish olib boriladi. Chunki o'qituvchi bolaning to'g'ri talqin qilishiga ko'maklashadi. Badiiy asarlar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi.



1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.
2. Asarning g'oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, sujet chizig'i, qurilish va tasviriy vositalarni tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog'lanishli nutqning o'sishini ta'minlaydi.
3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.
4. Sinfda o'qish o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishda uning hissiy ta'sirini ham hisobga olish zarur. Chunki o'quvchi matnni o'qibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan hayajonlanadi. Matnni tahlil qilishda o'quvchilarda ijodiy fikr uyg'onadi, ularda estetik did tarbiyalanadi. O'qituvchi ta'lim berish jarayonida badiiy asarni o'quvchi ongiga yetkazishda ko'plab o'xshatish va tasviriy vositalardan foydalanadi. Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyalarini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi. Badiiy asarlarda aniq tarixiy davrdagi voqealar tasvirlanadi. Shuning uchun o'quvchilar asarda tasvirlangan voqealarga tarixiy yondashgan taqdirdagina matnni to'g'ri o'qish, qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatlarini tushunish, dalillar va voqealarni haqqoniy baholashi mumkin. Bunda o'qituvchi boshlang'ich sinflarga badiiy asarni tadbiiq etganda ularda tasvirlangan davr haqida o'z ma'lumotlarini aytib o'tishi darkor. Har bir badiiy asarlar tahlili o'quvchi yoshiga mos bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Badiiy asar tahlilida qahramonlar nutqi monolog va dialog shaklida bo'lishi mumkin. Monolog asar qahramonining suhbatdoshiga, o'ziga ba'zan kitobxon tomoshabinlarga qarata aytgan gap so'zi va nutqidir. Dialog esa-badiiy asarda ichki personaj orasida bo'lgan bahs-munozara, suhbatdir.

Monolog: Hamid Olimjon "Muqanna" xalqqa ayting, men also o'lganim yo'q. Yov qo'lga taslim ham bo'lganim yo'q. Men elimning yuragida yashayman, Erk deganning tilagida yashayman[2]. Dialog: Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasini" Ulug'bek va Abdulatif dialogi: "Shahzodai juvonbaxt!-dedi sekin. "Taxtimning valiahdi sen eding. Ollohning inoyati bilan ko'zim tirigida bu baxt senga nasib bo'libdi, men bunga rozimen.-Balli sizga qiblagoh! Men bu taxtni birlamchi haq taoloning inoyati, ikkilamchi o'z kuch-qudratim ila qo'lga kiritdim[3]!



Turli janrdagi har xil badiiy asarlarning qurilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilar ongiga ta'siri ham turlicha bo'ladi. Ya'ni har bir janr o'quvchilarni turli xil yondashishga chorlaydi. Hikoya - kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoyadagi qahramonlar xatti-harakatlari haqida bahslar yuritiladi. O'qituvchi bolaga ularning eng go'zal xislatlarini qalblariga singdirishlari va o'zlariga kerak bo'lgan xulosalarni shakllantirishlariga yordam beradi. Hikoya orqali o'quvchilarning nutqi boyitiladi, o'z mulohazalarini to'liq ravishda aytishlariga imkoniyat yaratiladi. Shu bilan ularning lug'at boyliklari ham kengaytiriladi. Har bir personaj hayotidagi voqealar rollar asosida o'quvchilarga yetkazib borilsa, bu o'quvchida ijodiy yondashish ko'nikmasini hosil qiladi. Asar muallifning qisqacha ma'lumoti, ya'ni kampirning tongda ho'kizdan xabar olgani bilan boshlanadi. Ana shundan keyin voqealar rivoji ma'lum vaqtgacha muallif ishtirokisiz kechadi. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar voqealarni bir-biriga bog'lab turuvchi zanjir sifatida ishtirok etadi. Bunda yozuvchi personajlar holatini xalqona maqollar, matallar, shuningdek, iboralar yordamida yoritib bergan. Bu esa hikoyaning xalqchilligini ifodalaydi[4].

Masallarning o'quv jarayonimizdagi ahamiyati esa unda inson xarakteriga xos bo'lgan xususiyatlar masalda majoziy obrazlar hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. 3-sinf "O'qish kitobi"dan o'rin olgan "Qaysar buzoqcha" masali oilasi, o'rtoqlari, do'stlaridan ajralib yomon yo'llarga kirib qolgan oqibatda ko'ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Ushbu masaldagi asosiy xulosa ota-bobolarimiz yaratib, bizga nasihat sifatida qoldirgan "Bo'linganni bo'ri yer" hikmatida o'z ifodasini topgan[5]. Bundan tashqari masal janridagi asarlar boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Badiiy asarning yana bir turi bo'lgan ertak janri ham bolalarni yaxshilik qilishga, ezgulik kuchiga, qahramonlar xarakterlari orqali kuchli, botir, qo'rqmas, dovyurak bo'lishga yetaklaydi. O'qituvchi ertaklarni o'qitish bilan axloqiy, ma'naviy tarbiyalarni o'quvchi ongiga singdirib, shakllantirib boradi. Ertak atamasi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida ham keltirib o'tilgan bo'lib, biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini anglatadi degan qarashlar mavjud[6]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'proq ertak o'qishga ishtiyoqi baland bo'ladi. Chunki ular bolalik chog'idan bobo-buvilaridan



yoshi katta aka-opalaridan ertaklar eshitib, so'z boyliklarini boyitib kelgan bo'ladilar. Bu bilan ular o'zlariga kerakli mulohazalarni qabul qilib oladi.

Maqol janri bilan ham bolalar har bir masal, hikoya, ertaklarni o'rganib borishi davomida tanishib chiqadilar. Bu bilan badiiy asarlarning janr turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq va ularning zamirida mehr-oqibat, ezgulik, sadoqat, vafo, vatanga muhabbat, o'zlikni anglash kabi go'zal hislar yotadi. O'quvchi maqollarni o'rganishda dunyoqarashi shakllanadi, to'g'ri va ongli o'qish malakalari takomillashadi, maqoldagi har bir so'zning va yaxlit maqolning ma'nosini to'liq idrok etishga erishadi. 4-sinf "O'qish kitobi"da keltirilgan -Mehnat "baxt keltirar", "Mehnat-mehnatning tagi rohat" kabi maqollar bolalarni mehnatsevarlikka, boshqalarga yordam berishga undaydi. Har bir maqolda ezgu g'oyalar mujassam bo'ladi[7].

Umuman, boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni tahlil qilish va idrok etishdan maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilimlarni berish bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Buni biz faqatgina badiiy asarlar tahlili asosida ko'rib chiqdik. O'quvchi yoshlar olayotgan ta'lim-tarbiyada ham kelajakda komil inson bo'lish, har bir jarayon bilan bog'liq ma'naviy ozuqalarni olish, bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar namoyon bo'lishi bilan ularning ongi va tafakkuri yuksalib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T. B-56, 2017.
2. Hamid Olimjonning "Muqanna" dramasi. Toshkent. 2017. 2-parda.
3. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Toshkent 2017. 2-qism.
4. SH. Siddiqova. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarda folklor elementlarining qo'llanilishi "Xalq og'zaki ijodiyoti milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida xalqaro ilmiy konferensiya".B-127,2015.
5. Umarova M., Xamroqulov X., Tojiboyeva R. "O'qish" darsligi., 3-sinf. Toshkent 2019. B 92.
6. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi. Toshkent, 2010. B 25.
7. Shojalilov A, G'ulomova X, Sariyeva SH. 4-sinf o'qish kitobi T. 2017,B-214..